



DOSTON KUY VA SOZLARINI NOTADA IFODA QILISH

Berkinbaeva G'uljamal

Ózbekstan mámleketlik kórkem-óner hám mádeniyat instituti Nókis filiali "Folklor hám etnografiya" kafedrası "baqsishiliq hám dástanshiliq" tálim baǵdarı student

Annotaciya: *Bu maqolada dostonchilik san'ati ustoz-shogird an'analari asosida órgatilib kelinganligi, doston kuy-nomalarini notada ifoda qilish otgan asrning órtalari va oxirlarida kópgina olim, musiqashunos va ijrochilar tomonidan bajarilganligi, mamlakatimizda dostonchilik sohasiga katta e'tibor berilayotganligi haqida sóz etiladi*

Gilt sózler: *baxshi san'at, doston, sozanda, an'ana.*

Аннотация: *В данной статье говорится о том, что искусство дастана преподается на основе традиций наставник-ученик, что в середине и конце прошлого века многие ученые, музыковеды и исполнители исполняли дастанские мелодии в нотной записи, что в нашей стране уделяется большое внимание дастанному искусству.*

Ключевые слова: *бахши искусство, дастан, музыкант, традиция.*

Abstract: *This article discusses the teaching of dastan art based on mentor-student traditions, the fact that in the middle and late 20th centuries, many scholars, musicologists, and performers performed dastan melodies on musical notation, and that great attention is paid to dastan art in our country.*

Key words: *bakhshi art, dastan, musician, tradition.*

Qadim zamonlardan dostonchilik san'ati ustoz-shogird an'analari asosida órgatilib kelingan. Va bu an'ana hozir ham davom etib kelmoqda. Ammo shunga qaramasdan doston musiqiy kuy-nomalari na musiqashunoslar va na folklorshunoslar tomonidan tan olinadi. Hatto ularning ba'zilar ushbu qadriyatimizga bepisand va past nazar bilan munosabatda bólishadi. Natijada ushbu milliy qadriyatlarimiz shu paytgacha yetim boladek e'tiborsiz va qarovsiz qolib keldi. Bunga misol sifatida shu paytgacha folklorshunoslar tomonidan 400 dan ortiq xalq dostonlari yozib olinib chop etilganligi va bularning kópchiligi tóliq hatto akademik nashr ekanligi aytiladi. Ammo qayd etilgan dostonlarning 99% kuy-nomalarining notalari qog'ozga tushirilib ósha kitoblarga kiritilmagan bólsa, qanday qilib bu nashrlarni tóliq holda chop etilgan dostonlar deyish mumkin. Doston kuy-nomalarini notada ifoda qilish otgan asrning órtalari va oxirlarida kópgina olim, musiqashunos va ijrochilar tomonidan tarqoq holda bajarilgan. Ayniqsa turkiy xalqlarning eng qadimiy dostoni bólgan "Alpomish"ning kuy-nomalari notasi bilan birgalikda aks etgan tóliq matni nashr etilmadi. Hatto Fozil Yóldosh óg'lidan yozib olinib, óz ichiga 273 dan ortiq she'riy matnni mujassam etgan akademik nashr chop etildi. Ming afsuski, mazkur kitobda shuncha sh'erga qancha kuy-noma qóllanilganligi, ularning nomlari, kelib chiqishi, usuli, ólchovi va boshqa musiqiy jihatlari qanday ekanligini hech kim bilmaydi.



Faqatgina 1999-yili Alpomish dostoni yaratilganligining 1000 yilligi munosabati bilan Fayzulla Karomatli va Tóra Mirza tomonidan nashrga tayyorlangan qoraqalpoq namunasidagi “Алпамыс” kitobi nashr qilindi. Unda Qiyas jirov Qayratdinov ijrosida qóbiz jórligida dostonning tóliq bólmagan qoraqalpoq lahjasidagi varianti yozib olingan. Nota matnlarini Suren Gabrielyan qog'ozga tushirgan. Dunyoga mashhur “Alpomish” dostonining musiqiy matnlari bóyicha qilingan ish bor yóg'i shu. Buning sababi musiqashunoslar va folklorshunoslar uyushmagan holda xalqimizning bebaho qadriyatlarini qog'ozga yozib olganlar. Ya'ni har qaysinisi óz holicha musiqiy folklor alohida va adabiyotshunoslik folklori alohida yól tutganlar. Shu sababdan dostonlarning musiqiy kuy-noma nota matnlari qog'ozga yozib olinmasdan bir tomoni kemtik holda nashr qilinavergan.

Mamlakatimizda dostonchilik sohasiga katta e'tibor berilayotganligi munosabati bilan oliy ma'lumotli baxshi barcha bilimlar bilan birgalikda musiqa savodini ham mukammal bilishi, Óz jórnavoz cholg'usida doston kuy-nomalarini notadan qiynalmay óqishi, guruh bólib (Xorazm va qoraqalpoq dostonchilari uchun), ya'ni jamoa shaklida ansambl jórligidadoston parchalari, termalar kuylashni órganish, ovoz mashqlari va ovozni qizdirish uslublari talaba uchun katta ahamiyatga ega. Ansambl jórligida talabada yonidagi hamkasblari va sozandani har tomonlama sezishi, ular bilan hamnafaslikni-jórnavozlikni his qilishi va hamohang bólib kuylash malakalarini órganadi. Baxshilarning ansambl bólib, sahnaga chiqishi keyingi paytlarda konsert ijrochilik amaliyotida eksprement-sinov tarzida qóllanilmoqda. Shuning uchun bunday sharoitda ansambl ishtirokchisi bólgan talabaning oldida qator vazifalar turadi. Oldin u asarlarni faqat ózi yoki jórnavoz bilan birgalikda aytib kórgan bólsa, endi katta bir jamoa orasida ular bilan bir tan, bir jon bólib ijro qilishi, bunda barcha teng, barobar ekanligi va doimo ustoz nazoratida bólishi kerakligini hech qachon esdan chiqarmasligi, zarurligi uqtiriladi.

Talaba ansambllarda qatnasha boshlashi bilan terma yoki she'rdagi ózi kuylaydigan qatorlarini yonidagi sheriklari qatori aytishi, barcha murakkabliklarni yengib ótishi kerak. Bunda mutaxassislik fani muallimi va jórnavozlarning xizmatlari katta bóladir. Ular talabaga sinf mashg'ulotlarida:

- a) ansambl a'zosi jamoa ijrosini bir butun va ózi kuylaydigan qismini(partiyasini)shu ijroning bir bólagi deb bilishi;
- b) ansambl ishtirokchisi ózi kuylaydigan qismi(partiyasi) xarakteri, sadolanishi,tovush kuchi va ovozining tozaligi (intonatsiya) va boshqa sifatlarini ansambl dagibaxshilarining ovozlariga moslab olib borishi;
- c) v) jumalarni ijro etishda mohirlik, yetakchi va jór bóluvchi ovozlar almashinishinitez fahmlashi hamda shunga munosib ijro malakalarni singdirishi zarur. Ayniqsabaxshilarga xos bólgan ijrochilik nafasi, tovush chózimi, uning tozaligini har doimeshitish nazorati orqali boshqarib borishi va shaxsiy usul sezgisini jamoa usulsezgisiga bóysundirishi va moslashi katta ahamiyatga ega.
- d) Talabaning talaffuzi, sózlarni ijro etishda og'iz artikulyatsiyasi, uni



shakllantirilish malakalarini yaxshi egallaganligi, jamoa bólib ijro qilishning muhim shartlaridan biridir. Bunda oddiydan murakkabga qarab borish, sinfda va mustaqil mashg'ulotlarda izchillik, muntazamlilik hamda doimo muallimning e'tibori muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Matyoqubov B. Doston navolari / Mas'ul muharrir: san.f.n. prof. R.Yunusov. – Toshkent, 2009.
2. М.Юсупов туплаб нашр эттирган «Узбек халк музыкаси» IX ж. Уз.Дав.Нашр. 1962.